

## KICHIK BIZNESNING ISHONCHLI MADADKORI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni tadbirkorlik va kichik biznes subyektlari uchun faoliyatlari rivoji va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning kafolatiga aylandi.

Mazkur Farmon eng avvalo xususiy mulkni himoya qilishni yanada kuchaytirishga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga va har tomonlama qo'llab-quvvatlashga respublikaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga yo'naltirilgan va ushbu sohada davlat siyosatining sifat jihatidan yangi darajaga o'tishidan dalolat beradi. Xususan, farmon kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng erkinlik berish, ularning faoliyatiga aralashuvlarni tubdan qisqartirish huquqbuzarliklarni barvaqt oldi-olinishini ta'minlash, ularning profilaktikasi samaradorligini oshirish va huquqbuzarliklarga yo'l qo'yilmaslikni eng muhim ustuvor yo'nalish va davlat organlarining birinchi darajali vazifasi sifatida mustaxkamlaydi.

2017 yil 1 yanvardan boshlab, quyidagi ilgari ko'rilmagan choralar joriy etiladi:

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rejadan tashqari tekshirishlarning barcha turlari bekor qilinadi, bundan yuridik shaxslarning qonun hujjatlari buzilish holatlari to'g'risidagi murojaatlari asosida faqatgina nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashining qaroriga muvofiq o'tkaziladigan qisqa muddatli tekshiruvlar bundan mustasno.

Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini, shu jumladan, jinoyat ishlari doirasidagi muqobil tekshirishlarning barcha turlari bekor qilinadi.

Mamalakatimiz bank tizimida olib borilayotgan islohotlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash alohida o'rin egallaydi.

Jumladan, "Asaka" bank Jizzax viloyat filiali tomonidan aynan ushbu sohaga yo'naltirilgan kreditlari miqdori yildan-yilga o'sib bormoqda. Bank filiali tomonidan joriy yilning o'tgan davri mobaynida tadbirkorlik subyektlariga 67,5 mlrd.so'mdan ziyod miqdorda kreditlar ajratilgan bo'lib, buning natijasida ko'plab yangi ish o'rinlari tashkil etildi. Bank filialining tajribali mutaxassislari tadbirkorlarga, ayniqsa, ta'lim muassasalari bitiruvchilariga kreditlarni rasmiylashtirishda yaqindan maslahat va tafsiyalar berib kelmoqdalar.

Bugungi kunda ta'lim kreditlariga extiyoj viloyatda tobora ortib borayotgani yoshlarga oid davlat siyosatining hududiy va boshqa dasturlar asosida amalga oshirilayotganligidan darak bermoqda.

"Asaka" bankning Jizzax viloyat filiali tomonidan mijozlarga, shuningdek xususiy tadbirkorlik subyektlariga bir qator qulayliklar yaratilgan bo'lib, bank binosida "Tadbirkorlar xonasi" tashkil etilgan bo'lib, bu yerda tadbirkorlar o'z

faoliyatlarini yo'lga qo'yishlari uchun va rivojlantirishlari uchun barcha me'yoriy-huqukiy hujjatlar bilan bir qatorda, axborot – kommunikatsiya tizimlaridan foydalanishlari uchun zamonaviy kompyuter texnologiyalari bilan to'liq ta'minlangan. Bu yerga biriktirilgan mas'ul xodim bilan birgalikda tadbirkorlarni qiziqtirgan savol va muammolari bo'yicha fikr almashilishi yo'lga qo'yilgan. Qolaversa, bank xodimlarining shiori mijozlarga ishonchli, samarali, sifatli, tezkor xizmatlar ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yishdir. Bu esa mijozlarning bankka nisbatan ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

-Tikuvchilik faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadida "Asaka" bank Jizzax viloyat filialidan imtiyozli shartlarda uzoq muddatli kredit oldim,- deydi **"Jannati Bibixonim" xususiy korxonasi rahbari Nargiza To'ychieva.** – Ish faoliyatimiz ko'lami bir necha baravarga kengaydi, shuningdek 10 nafarga yaqin yangi ish o'rinlari yaratilib, bunga asosan kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari ishga qabul qilindi. Hozirda ish faoliyatimizni yanada kengaytirish, ishlab chiqarishni zamonaviy texnologik uskunalar bilan jihozlashni rejalashtirib turibmiz. Kelgusida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni eksportga yubormoqchimiz. Bunda biz "Asaka" banki madadiga tayanamiz va tadbirkorlarga bank tomonidan ko'rsatilib kelinayotgan xizmatlardan minnatdormiz.

- Polietilen quvur va plyonka ishlab chikarish uskunasi olish uchun "Asaka" bank Jizzax viloyat filialidan imtiyozli shartlarda uzoq muddatli kredit oldim, - deydi **«AGAMIS» savdo ishlab chikarish firmasi rahbari Alimardon Po'latov.** – Bank tomonidan ko'rsatilgan moliyaviy ko'mak natijasida ishlab chiqarish faoliyatimizni yanada rivojlantirib, mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirdik, 8 nafar yangi ish o'rinlari yaratilib, bunga asosan kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga qabul qildik. Ish faoliyatimizni tezda yo'lga qo'yishimizda "Asaka" bank moliyaviy ko'magi bizga qo'l keldi.

-Shahrimiz aholisi talabini o'rganib chiqib non va non mahsulotlari ishlab chiqarish sexini tashkil etishni maqsad qildik, - deydi **«Mohlaroyim Norboeva» ma'suliyatini cheklangan jamiyati rahbari Sherali Mamirov.** - Maqsadimizni amalga oshirish uchun biznes reja tushdik va viloyatimizdagi yetakchi banklardan biri bo'lgan "Asaka" bankning Jizzax viloyat filialiga murojaat etdik. Bank xodimlari biznes rejamizni tezlikda ko'rib chiqib, o'zlarining zaruriy maslahatlarini berdilar. Tez orada bank krediti hisobiga aholi uchun sifatli hamda arzon non va non mahsulotlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydik. Har kuni aholi dasturxoniga issiq va hushta'm non va non mahsulotlari yetkazib berilmoqda. Daromadimiz ham shunga yarasha ortib bormoqda. Bundan biz ham, mijozlarimiz ham xursand. Ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishimiz natijasida 15 nafar yangi ish o'rinlari yaratilib, asosan yosh yigit-qizlar ishga qabul qilindi, shuncha oilaning uyiga baraka kirdi.

- 2015 yilda Jizzax tibbiyot kasb-hunar kollejini tamomladim va yurtimizda tadbirkorlarga, ayniqsa yosh tadbirkorlarga yaratilgan keng imkoniyatlardan ilhomlanib tadbirkorlik bilan shug'ullanishni, savdo faoliyatini yo'lga qo'yishni maqsad qildim, - deydi **yosh tadbirkor Mushtarish Hayitboeva.** – Maqsadimni

amalga oshirish uchun esa pul mablag'lari zarur edi. Moliyaviy ko'mak uchun "Asaka" bank Jizzax viloyat filialiga murojaat etdim. Bank tomonidan ajratilgan imtiyozli kredit hisobiga savdo do'konini mukammal ta'mirlab, zamonaviy talablar asosida qayta jihozladim, rastalarni zaruriy iste'mol tovarlari bilan to'ldirdim. Mijozlarimiz kundan-kunga ko'payib bormoqda. Men bilan kasb-hunar kollejni ta'momlagan ikki nafar dugonalarim ham ish bilan ta'minlandi. Tadbirkorlik faoliyatimni yo'lga qo'yishda yaqindan yordam bergan "Asaka" bank jamoasiga o'z minnatdorchiligini bildirib, ularning ezgu ishlarida muvaffaqiyatlar tilayman.

Bank filiali tomonidan joriy yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga jami 72,5 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratilishi rejalashtirilgan.

Xulosa qilib aytganda, «Asaka» bank Jizzax viloyat filiali tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga har tomonlama qulayliklar yaratish siyosati muhim ustuvor vazifalardan sanaladi. Bank filiali jamoasi mazkur sohaning rivoji iqtisodiy muvaffaqiyatlar uchun asosiy omillardan biri ekanini yaxshi anglagan xolda o'z faoliyatlarini yo'lga qo'yganlar. Shuning uchun o'zlarining istiqboldagi taraqqiyotini belgilab olishda masalaning ana shu tomonini nazardan qochirmaslikka intilayotganlarini ko'rish mumkin. Natijada respublika iqtisodiyotining har tomonlama o'sishi uchun mavjud qulay shart-sharoitlar zahirida faoliyatning samaradorligiga erishilmoqda.

**Bank Axborot xizmati**